

OGAHIYNING POETONIMLARDAN
FOYDALANISH MAHORATI

Yuldashev Doniyor

UrDU O'zbek tilshunosligi kafedrasi prof.(v.b.),
(DSc)МАСТЕРСТВО АГАХИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ В
ПОЭТОНИМАХ

Юлдашев Дониёр

doniory696@gmail.com

Профессор (и.о.) кафедры узбекского языкознания УрГУ, (DSc)

GAHI'S SKILL IN USING POETONYMS

Yuldashev Doniyor

Professor (Acting), Department of Uzbek Linguistics, UrSU
(DSc)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy siymosi, uning Xorazm tutiga bag'ishlangan g'azalida qo'llangan onomalarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari, ularning badiiyat va matn badiiy-estetik butunligini ta'minlashdagi ahamiyati bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Ogahiy, poetonim, tarixiy nom, apellyativ, yahudiycha, geneologik, payg'ambar, antropoetonim, timsol.

Аннотация. В данной статье описывается характер Агахи, сына Мухаммадризо Эрнийзбека, эмоционально-экспрессивные особенности звукоподражания, использованного в его газели, посвященной шелковице Хорезма, и их значение в обеспечении художественной и эстетической целостности текста.

Ключевые слова: Агахи, поэтоним, историческое имя, наименование, идиш, генеалогический, пророк, антропоэтоним, символ.

Abstract. This article describes the character of Agahi, the son of Muhammadrizo Erniyozbek, the emotional and expressive features of onomatopoeia used in his ghazal dedicated to the mulberry of Khorezm, and their significance in ensuring the artistic and aesthetic integrity of the text.

Key words: Agahi, poetonym, historical name, denomination, Yiddish, genealogical, prophet, anthroponym, symbol.

Kirish. Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy – o'ziga g'ayratni qalqon, sabrni shior qilg'on, haqiqat jomidin ichib, ruhini poklagan, har bir jabhada Allohga tavakkal qilib, qanoatni shior qolgan, minnatli oshdan qochgan, haqiqat ahlig'a masohib, majoz ahlig'a ulfat bo'lg'on, buzuq kulbasida bir parcha halol nonini topgan gado – "sulton" bo'lgan; u ko'nglini soflash uchun vujudin kul qilgan, tab'i nazm aro quvvat topgan, ilmni insonning ikki dunyosini obod qiladigan "janji nofi" deb bilgan, shirin nukot uzra nukotni nazm aylagan, maoni mulkini til tig'i tortib olgan, haqiqiy hazni "nazm aro dilso'z mazmun bo'lishida" deb bilgan,

fano-u faqr sori ko'ngli moyil, 28 yil miroblik qilib, bir ko'lcha yeri bo'lmagan, o'z holini "dardangiz devoni"ga joylagan chin ma'nodagi inson edi.

Ma'lumki, Sayyid Muhammad Bahodirxon (Feruz) iltifoti, madadi, topshirig'i bilan "Taviz uloshiqin" dunyoga keladi. Ogahiy o'zidan "yaxshi va boqiy farzandlar" – she'rlar qoldirgan, o'z asarlarida faqat chin so'z aytgan va so'ziga amal qilgan, chunki "so'z amali bilan foydali bo'lishini":

Xalq aro gar ogah esang, Ogahiy,
Beg'araz ar so'zni desang, Ogahiy.
Chunki erur boshdin oyoq chin so'zing,

Lek kerakdur amal etsang o‘zing...[13. 456] deya ta’kidlagan hassos shoirdir.

2. Metodologiya. Mumtoz manbalardagi onomalar muayyan muallifning o‘sha davr lug‘at boyligining tarkibiy qismi sanaladigan atoqli otlardan ma’lum maqsadni ko‘zlagan holda, o‘rinli foydalanish qobiliyati, uning o‘ziga xos individual uslubi va ana shu onomalarlar bilan bog‘liq diniy, tarixiy, etnografik, umuman, ensiklopedik bilimlari darajasini baholashda muhim omillardan sanaladi. Jumladan, Ogahiyning “Tavizu-l oshiqin” devonida poetonimlarning turli ko‘rinishlari – teopoetonimlar (*Alloh, Rab, Tangri, Haq* kabi), antroppoetonimlar (*Iso, Sulaymon, Layli, Ogahiy, Anvari* kabi), topopoetonimlar (*Bobil, Qof, Aras, Furot, Ho‘tan, Jayxun* kabi), mifopoetonimlar (*Axraman, Jamshud, Rustam, Ayo* kabi), fitopoetonimlar (*Tubi – Tubo* kabi), zoopoetonimlar (*Buroq, Duldul* kabi), kosmopoetonimlar (*Bahrom, Qoba burji, Zuhra, Mezon burji* kabi), shuningdek, geneologik jihatdan sof turkiy, arabiy, forsiy, qadimgi yunoncha, qadimgi yahudiycha apellyativlarga asoslanuvchi poetonimlar; tuzilishiga ko‘ra sodda va qo‘shma (murakkab) poetonimlar; semantik xususiyatlariga ko‘ra diniy, badiiy va real poetonimlar; uslubiy xoslanishiga ko‘ra nominativ vazifada kelgan va qo‘shimcha ma’no, ya’ni emotsional-ekspressiv ma’no yaratgan poetonimlar uchraydi. Masalan, Ogahiy birgina Xorazm tuti ulug‘langan, ramali musammani mahzuf vaznida bitgan “Bo‘ldi tut” radifli g‘azalida *Jabroil, Iskandar, Jam, Hotam, Sulaymon, Rustam, Iso, Maryam, Folotun, Qorun, Xizr, Haq, Rab, Firdavs, Rizvon, Kavsar* kabi mifologik, diniy, badiiy hamda real nomlarda bir o‘rinda onomastik metafora sifatida, yana bir o‘rinda allyuziv nom sifatida, yana bir o‘rinda o‘xshatish etaloni sifatida, yana bir o‘rinda intertekstuallikni ta’minlovchi vosita sifatida maqsadli va samarali qo‘llagan [13. 70-71].

3. Muhokama va natijalar. Ogahiy devonidagi badiiy tasvirning asosiy vositalaridan biri bo‘lgan poetonimlarning o‘rni va xususiyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ma’lumki, adabiy matnlarda, xususan, nazmiy asarlarda boshqa so‘zlar kabi poetonimlar ham ekspressiv-uslubiy vazifani bajarib keldi. Quyida ushbu g‘azaldagi atoqli otlar tahliliga murojaat qilamiz:

El muallo borigohing arsh a‘zam bo‘ldi tut,

Xilvati xosing aro Jibriyl maxram bo‘ldi tut... – ushbu matla‘da shoir vohamiz tutini shunday ta’riflaydiki, hatto uning yashil yaproqlari-yu, ostiga bir parcha quyosh nuri

tushirmaydigan shox-shabbalari yaratgan xos xilvatiga Jibriyl alayhissalom maxram bo‘lishga tayyor. Ushbu matla‘dagi *Jibriyl (Jabroil)* diniy adabiyotlarga ko‘ra, Allohning eng suyuqli farishtasi hisoblanadi (Қуръон, 2:87). Jabroil Allohning buyruqlarini hamma payg‘ambarlarga, jumladan, Muhammad salallohu alayhi vasallamga ham Qur‘on oyatlarini yetkazib turgan. Jabroil 1-marta Odam Ato va Momo Havvo o‘rtasidagi insoniy munosabatlarni joriy qilgan: “Qachon Odam Havvoga o‘g‘radi ersa, Jabroil alayhissalom aydi: “Ey Odam, Havvo saning turur, nikoh qilmaguncha ravo bo‘lmas” [15. 19]. *Jabroil* mumtoz manbalarda *Jibril* shaklida ham uchraydi. Har ikkala shakli ham qadimiy suryoniycha *Gavriil*dan olingan bo‘lib, “Allohning kuchi, qudrati” ma’nolarini anglatadi. Ko‘pgina yodgorliklarda *Jabroil* – “Ruhul amin”, “Ruhul quds” birikmalari orqali berilgan. Ba’zi diniy adabiyotlarda boshqa nom bilan ham yuritilgan: “Jabroilning oti Zaburda “*Nomusi Akbar*” erdi [16. 121].

Joh ila hashmat aro topgil oningdek rutbakim,

Har qulung Iskandar-u har chokaring Jam bo‘ldi tut... – “boylik va hashamat ichra shunday maqom topki, har quling Iskandar va har xizmatkoring Jamshid bo‘lsin” mazmunidagi ushbu baytdagi *Iskandar* – mumtoz adabiyotdagi mashhur va taniqli shoh, uning hayotini barcha xamsanavislar, jumladan, A.Navoiy o‘z dostonida yoritgan. F.Boynazarov “Iskandar Zulqarnayn – Aleksandr Makedonskiyning ayni o‘zi emas, balki uning Sharqda o‘zlashgan obrazidir” deb ma’lumot beradi. Darhaqiqat, bu poetonim shakllanishining bir qismini tarixiy Iskandar tashkil etsa, bir qismini “Qur‘oni karim”dagi Zulqarnayn siymosidan o‘zlashgan sifatlar tashkil etadi. Ogahiyning yuqoridagi baytida Sharq adabiyotidagi an’anaviy qudratli shoh timsoli sifatida allyuziv nom, shuningdek, intertekstuallik yaratuvchi vosita sifatida qatnashgan hamda matnning emotsionalligi, ifodaviyligi va mazmuniy qabariqligini ta’minlagan.

Baytdagi *Jam* – “qadimiy va afsonaviy Eron shohi, ya’ni *Jamshid*, qisqartirib, *Jam* deb ham atashgan” [2. IV. 276-277]. Afsonaviy podshoh *Jamshid*ning yana bir nomi, sanskrit manbalarida “*Yam*” shaklida, “*Avesto*” “*Gotlar*”ida “*Yima*” shaklida keltirilgan... *Jam* obrazi A.Navoiy asarlarida jami 77 marta tilga olinib, turli poetik

vazifalarni bajargan [4. 1-j. 179-180]. N.Husanovning qayd etishicha, mumtoz yodnomalarda *Jam (Jamshid)* quyidagi ma'nolarni anglatib kelgan:

1) buyuk shoh; 2) shoh nasabi; 3) baxtiyorlikka hasad qiluvchi; 4) yuksak o'rin – taxt; 5) qissa yoki asar nomi; 6) shoir ko'ngli; 7) so'z, she'r; 8) Farhod; 9) Bahrom; 10) Iskandar; 11) Boyqaroning taxti [18. 145].

Hotami zarrin bo'lub ilkingda raxshon oftob, Ismi a'zam anda yaksar naqshi Hotam bo'ldi tut... – baytidagi *Hotami Toiy* – saxovat va ochiqqo'lligi bilan mashhur bo'lgan kishi. To'liq ismi – Hotam bin Abdulloh bin Sa'd Toiy. Arablarning Tay qabilasidan bo'lib, islomdan oldingi davrda yashagan. Muhammad alayhissalom Toy sharofati bilan uning avlodini e'zozlashni buyurgan. Sharq she'riyatida *Hotam* nomi bilan hikoyat va rivoyatlar keng qo'llanilgan, qissa va dostonlar, hattoki “Hotamnoma” kitobi yaratilgan. A.Navoiy “Hayrat ul-abror”ning 5-maqolatida *Hotam* haqida bir hikoyat keltiradi. Hikoyatda Hotam kabi kishilarning saxovati va muruvvatiga ko'z tikib o'tirishdan ko'ra o'z kasbi orqasidan kun ko'rishni afzal bilgan kishilar himmat bobida Hotamdan ustun, degan g'oya ilgari suriladi [4. 2-j. 256-257]. Ammo yuqoridagi bayt 2014-yil nashr qilingan Ogahiyning “To'la asarlar to'plami”da noto'g'ri tabdil qilingan, qo'lyozmaga asoslanadigan bo'lsak, “Hotam” tarzida berilgan so'z aslida “xotam”, ya'ni oldingi misrada “uzuk”, keying misrada “muhr” ma'nosidagi turdosh ot sanaladi va ajoyib tajnis yaratishga xizmat qilgan.

Ofarinishg'a Sulaymondek topib hukming nufuz,

Tobi-yu farmon-u amring jumla olam bo'ldi tut... – “sen taqdiri azalning hukmi bilan Sulaymon alayhissalom kabi nufuzga ega qilib yaratigansan, sening farmon-u amringga butun olam tobe (Tutning mevasi qoqilganda hamma egilib, ularni terishiga ham ishora bor)” mazmunidagi ushbi baytda qo'llangan *Sulaymon* nomi Sharq adabiyotida ko'p qayd qilingan. Ba'zi adabiyotlarda payg'ambarlashtirilgan tarixiy shaxs sifatida ko'rsatilgan [11. 245], aslida *Sulaymon* Dovud payg'ambarning o'g'lidir. *Sulaymon* qadimiy yahudiycha “*shelomo*” so'zidan olingan bo'lib, “tinchliksevar”, “himoyalangan”, “omon” degan ma'nolarni anglatadi. Bu nom badiiy adabiyotda turli maqsadlarda **qo'llangan**: “Xalq o'z fantaziyasining butun kuchini ishga solib, Sulaymonning harbiy

qudrati, jannatnamo muhiti va ilohiylashgan hayoti haqida afsonalar to'qigan. Bu esa o'z navbatida o'zbek klassik adabiyotining namoyondalariga biror real hodisani Sulaymon payg'ambar bilan bog'lash orqali shu hodisaning tasviriy kuchini oshirish uchun imkoniyat tug'dirib kelgan” [18. 32]. “Qomusiy lug'at”da ham “*Sulaymon* – islomiyatdan oldin o'tgan payg'ambarning nomi. Dovud alayhissalomning o'g'li. Sulaymon ismi Qur'oni karimda 17 marta zikr etilgan. Sulaymon qissasi “Tarixi anbiyo va hukamo”da muxtasar keltirilgan... Mumtoz adabiyotda Sulaymon bilan bog'liq hikoyatlar asosida talmeh yaratilgan” [4. 1-j. 521-522] tarzida izoh qayd qilingan. Y.Saidov fikricha, *Sulaymon* – kuch-qudrat, hashamat timsoli [6. 138] bo'lib, Ogahiy she'riyatida, asosan, “qudratli va adolatli hukmdor” ma'nosidagi allyuziv nom yoki o'xshatish etaloni sifatida tahmeh san'atiga asoslangan intertekstuallik yaratadi, bunda shoir poetonim va bayt mazmunining ostiga Alloh Sulaymonga “yelni musahhar qilib bergani”, “hosiyatli uzukni bergani”, barcha ins-u jins uning farmoniga berilgani, mashhur “qarinchqa (Manzara) bilan bo'lgan suhbatini”ni yashiradi hamda tasvirni yana ham ta'sirli, qabariq mazmunli qilishga erishadi.

Arsayi olamg'a sig'may lashkaring kasrat aro,

Har biri oning shijoat ichra Rustam bo'ldi tut... – ushbu baytdagi *arsayi olam* – “olam sathi, yer yuzi” [7. 116]; *kasrat* – “1) mo'llik, seroblik; 2) to'la, ko'pchilik” [8. 101] ma'nolarini inobatga oladigan bo'lsak, tutning katta-katta va mo'l-ko'l mevalari orqali Rustamga ishorani anglashimiz mumkin. *Rustam* – Zolning o'g'li, Eron lashkarboshisi va pahlavoni bo'lgan. “Shohnoma”da Rustamning tug'ilishi va nom berilishi quyidagicha ta'riflanadi: *Onaga berdilar u sherbachchani, Bola emas, balki samo gulshani. Bir kunda bo'libdur bir yashar bola, Go'yo bir guldasta, savsan-u lola. Kuldi-yu, ko'rindi tishlar sadafi, Chehrada namoyon shohlik sharafi. Birustam – qutildim – birustam deyar, Shu bois o'g'ul ismi Rustam deyar.* Fikrimizcha, *bi rustam* – “qutildim” ma'nosi xalq etimologiyasiga asoslangan. Chunki ba'zi ilmiy adabiyotlarda bu ism pahlaviycha “*Roststaxma*”dan kelib chiqqanligi ko'rsatiladi [10. 183]. Demak, Rustam “katta gavdali”, “qomatli”, “kuchli” ma'nolarini anglatadi [18. 73].

Hashmating ovozasi xayli malak ichra tushub,

Bir sano xoning sening Iso-yu Maryam bo'ldi tut... – “sening hashmating ovozasi farishta-malaklar orasiga yoyilib, Iso va Maryamlar ham sening maqto'vchilaring bo'ldi” mazmunidagi navbatdagi baytdagi Iso (Masih, Masiho, Ruhulloh) – Islomdan oldingi payg'ambarlardan, nasroniylik dining asoschisi, unga “Injil” kitobi nozil qilingan va “Qur'oni karim”da 25 marta va mumtoz adabiy yodgorliklarda esa ko'p uchraydigan nomlardandir. Mumtoz adabiyotda u “tiriltirish – uyg'otish timsoli, Quyoshga fanolik ramzi, xuffosh obrazi tasviri, boshqa payg'ambarlar bilan muvoziy qo'llanuvchi siymo, tadrij timsoli, poetik funktsiya va mazmun ijrochisi, badiiy tasviriy-ta'siriy vosita, abadiylik ramzi, xasta ko'ngillarni davolovchi tabib va boshqa ko'plab g'oyaviy-badiiy maqsad-vazifalarni bajarishga xizmat qilgan [4. 1-j. 220]. Diniy va ilmiy adabiyotlarda Iso qadimiy yahudiycha “yeshu'a” so'zidan olingan bo'lib, “Tangrining marhamati”, “Xudoning madadi” ma'nosini anglatishi ta'kidlanadi [18. 145]. *Masih* \ *Masiho* antroponimlari “G'iyos ul-lug'at”da keltirilishicha, u “do'st” va “ko'p sayr qiluvchi” ma'nosini bildiradi. Chunki u zot Haqning do'sti bo'lgan va yolg'izligi uchun yer yuzini ko'p kezgan. Shu ikki ma'nosi bilan Iso alayhissalomning laqabiga aylangan va uning ismi bilan yoki alohida qo'llanadi [12. 260]. Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida yozilishicha: “ul o'likkim, Iso alayhissalom tirguzdi, Inb ul-A'juz erdi. Va sharhi budurkim, sayr asnosida bir ajuzani ko'rdikim, bir qabr boshida muassir navha qiladur. Kayfiyatini so'rди. Dedikim, o'g'lum erdi va firoqidin betoqatmen. Iso alayhissalom duo qilib, Tengri taolo ul mayyitqa ruh kiyurdi va o'luk tirilgach, iltimos qildikim, duo qilg'ayki, burung'i holig'a borg'ay va mavt saqaroti bo'lmag'ay. Ruhulloh duosi bila bu ish ham bo'ldi...” [3. 590-591]. U xalq talabiga ko'ra o'lganiga 4 ming yil bo'lgan Som ibn Nuhni ham tiriltiradi. Balchiqdan ko'rshapalak yasab, nafasi bilan unga jon ato etadi. Demak, Iso nafasi, Iso dami, Masih anfosi kabi iboralar shu bilan bog'liq. *Maryam* ismi mumtoz yodgorliklarda ko'p uchraydi: asosan, Iso bilan birga – *Isoyi Maryam* holidi va alohida – *Maryam* tarzida qo'llanadi. *Maryam* qadimiy ibriycha “mariyam” so'zidan olingan bo'lib, “achchiq”, “ortiqlik”, “Tangrining sevimlisi”, “pok” ma'nolariga ega [18. 40].

Ilmi hikmatda o'tub haddin kamoli donishing,

Yuz Falotun ajz ila olingda mulzam bo'ldi tut... – “sening aqliy kamoling ilmi hikmatda shunday yuksaldiki, hatto yuz Aflotun ham sening oldingda mulzam bo'ladi” mazmunidagi ushbu baytda qo'llangan *Falotun* antroponimi “Xamsa” dostonlarida ham shu shaklda kelib, lug'atda “er.av. 427-yil tug'ilib, 347-yilda vafot etgan grek faylasufi Aflotun; Suqrotning shogirdi” [2. IV. 301-302] tarzida izohlangan. “Ham Sharq mumtoz adabiyoti, ham Navoiy lirikasida *Aflotun* (*Filotun*, *Falotun*) dono va aqli inson timsolida gavdalanadi [4. 1-j. 80].

Yer yuzining naqdi-yu ostida Qorun moli ham

Jam o'lub sarto qadam ganjingga'a munzam bo'ldi tut... – ushbu baytdagi *Qorun* – Muso payg'ambar zamonida yashagan shaxs, bu ism “Qur'oni karim”da 4 marta (“Qasas” – 76, 79; “Ankabut” – 39; “Mu'minun” – 24) tilga olingan [4. 2-j. 200]. Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo”sida keltirilishicha, Bani Isroil qavmining donishmandlaridan hamda Muso alayhissalomning amakivachchasi bo'lgan, takabburligi va xasisligi bilan nom chiqargan shaxs [9. 216]. Aysu Ata izohicha, “Firavin'in naziri ve Musa peygamberin teyzesinin og'lu” [1. 791]. Mumtoz nazmda, xususan, Ogahiy g'azallarida ham bu poetonim “juda ham boy, ammo baxil podsho” timsoli sifatida “ganj, mol, maxzan” kabi ishora birliklari bilan qo'llanadi va metoforik nom yoki intertekstuallik vositasi sifatida ishtirok etadi.

Muddati umring ziyoda Xizr umridin bo'lub,

Har kuni bu umrining navro'z bayram bo'ldi

tut... – Xorazm tutining uzoq umr ko'rishiga ishora qiluvchi ushbu baytdagi *Xizr* (*Xizir*) – islom dini kelishidan oldin o'tgan payg'ambarlardan biri, lekin “Qur'oni karim”da shu nomli payg'ambar nomi zikr etilmaydi. Tafsirlarda Muso payg'ambarga hamrohlik qilgan zot (“Qahf” surasining 59-81-oyatlari) nomiga bog'lab talqin qilinadi. Rabg'uziy talqinicha, *Xizr* “yashil” degan ma'noni anglatadi (asl ismi *al-Yasa'* bo'lib, qayerda o'tirsa, o'sha joydan maysa unib chiqar emish). Bu antroponim turkiy adabiyotda Ahmad Yassaviy asarlaridan boshlab uchraydi. “*Xizr* – zulmat qa'ridagi obi hayot – tiriklik suvini izlab topgan va undan ichib, abadiy hayotga noil bo'lgan payg'ambar sifatida ko'pgina xalqlar adabiyotida uchraydi. U odamlarni mushkul

ahvoldan qutqaradigan, ularga yordam beradigan, maqsadga olib boradigan to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi xaloskor siymosida tasvirlanadi, oshiqlar homiysi hisoblanadi [5. 33]. O'zbek xalq og'zaki ijodida esa *Xizr* "odamlarga yaxshilik qiluvchi ezgu homiy, cho'lda yoki dengizda adashganlarga yo'l ko'rsatuvchi g'aroyib inson, ekinga mo'l hosil baxsh etuvchi mo'jizakor qudrat sohibi, baxt va davlat ato qiladigan ezgu pir, epik qahramonlarning doimiy hamrohi sifatida tasvirlanadi" [14. 21]. *Xizr* poetonimi Sharq she'riyatida "hamrohlik qiluvchi avliyo", "yo'l ko'rsatuvchi", "yashil", "nasha, bang", "ustoz", "xaloskor payg'ambar", "mangulik va abadiylik timsoli", "ilohiy ma'rifatdan bahramand kishi", "piri komil" sifatida ko'proq uchraydi. Ogahiyning yuqoridagi baytida "mangulik, abadiylik va uzoq umr timsoli" sifatida intertekstuallik (talme) kasb etgan va ushbu ishora orqali shoir o'zi ko'zda tutgan fikrni obrazli ifodalash imkonini topgan.

Majlising Firdavsi Rizvon-u maying Kavsar bo'lub O'zni onda to abad masruru xurram bo'ldi tut... – ushbu baytda *Firdavs*, *Rizvon*, *Kavsar* topopoetonimlari tanosubning go'zal namunasini yuzaga keltirgan. Jumladan, *Firdavs* lug'atlarda "jannat, bog', ravza, sakkizinchi jannat nomi" [2. III. 345] tarzida izohlangan bo'lsa, *Rizvon* – aslida jannatni qo'riqlovchi farishta [4. 1-j. 453] bo'lib, mumtoz adabiy manbalarda ushbu onoma, asosan, metonimik allyuziv nom sifatida Ravzayi Rizvon (*Rizvon bog'i*) yoki *Firdavsi Rizvonga*, ya'ni jannatga ishora qilib keladi. *Ravzayi Rizvon* lug'atda "sakkiz behishtning biri, rozilik va mamnuniyat jannati" tarzida izohlangan [2. II. 622].

Ushbu g'azalda yana *Haq*, *Rab* teopoetonimlari ham ishtirok etganki, ularning izohlari Allohning go'zal ism-u sifatleri bilan bog'lanishi tabiiy [17. 323, 484].

4. Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, Ogahiyning nafaqat birgina ushbu g'azali, balki barcha badiiy, tarixiy va tarjima asarlaridagi atqli otlarni zamonaviy ilmiy paradigmalar asosda sinchiklab o'rganish lozim. Chunki bunday mumtoz

asarlardagi nomlarni tekshirish va hozirgi onomastik tizim bilan qiyosiy o'rganish orqali onomastikaning tarixiy nomshunoslik degan sohasiga asos solingan bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aysu Ata. *Kisasu'l enbiya*. – Ankara, 1997.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. II, III, IV томлар. – Тошкент, 1985.
3. Алишер Навоий. *Мажодис ун-нафоис* \ Тўла асарлар тўплами, 8-жилд.
4. Алишер Навоий. *Қомусий луғат*. 1-, 2-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2016.
5. Очилов Э. *Бир ховуч дур*. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
6. Saidov Y. *O'zbek adabiy tili tarixi*. – Buxoro: Durdona, 2021.
7. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I том. – Тошкент, 1983.
8. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. II том. – Тошкент, 1983.
9. Алишер Навоий. *Мукамал асарлар тўплами*. 20 томлик. 15-том. – Тошкент: Фан, 1999.
10. Гафуров А. *Имя и история*. – Москва: Наука, 1987.
11. *Ислом. Справочник*. – Тошкент: Энциклопедия, 1989.
12. Мухаммад Гиёсиддин. *Гиёс ул-луғот*. Жилди 2. – Душанбе: Адиб, 1988.
13. Мухаммад Ризо Огаҳий. *Тўла асарлар тўплами*. 1-жилд: Девон. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2014.
14. Нурмонов Ф.И. *Хизр образининг генезиси ва унинг ўзбек фольклоридаги талқини*: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2007.
15. Рабғузий. *Қисаси Рабғузий*. 1-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990.
16. Рабғузий. *Қисаси Рабғузий*. 2-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1991.
17. У шундай Аллоҳки, ... Асмоул ҳусно. – Тошкент: Shoshnashr, 2024.
18. Ҳусанов Н. *Ўзбек антропонимлари тарихи*. – Тошкент: Наврўз, 2014.